

BESH MUHIM TASHABBUS - KELAJAKKA MUSTAHKAM POYDEVOR**Abduhakimova Nigora Jamshid qizi***O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakulteti**O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi***I.H.Yoqubov***Ilmiy rahbar***ARTICLE INFO.****Keywords:**

Tashabbus, video-selektor, musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, jismoniy chiniqtirish, sport, ta'lim-tarbiya, yo'l xarita, kompyuter texnologiyalari, internet, Oliy Majlis Senati, Mahallabay, yoshlar daftari, Ma'rifat karvoni, Yosh kitobxon, Bir million dasturchi, Mard o'g'lon, Kelajak bunyodkori.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonivich Mirziyoyev rahbarligida ilgari surilgan besh tashabbus doirasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, va ish bilan taminlash chora tadbirlari, Prezidentimiz qarorlari, besh tashabbus ko'lamida hududlarda amalga oshirilgan salmoqli ishlar va ko'rik tanlovlar, erishilgan yutuq va kamchiliklar, aholimizning tashabbusga bo'lgan e'tibori va qiziqishi yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Kirish

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir".

Shu nuqtayi nazardan, Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan video-selektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi.

Birinchi tashabbus-yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha.

Ikkinchi tashabbus-yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o'z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish masalalari bo'yicha.

Uchinchi tashabbus-aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari bo'yicha.

To'rtinchi tashabbus-aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni

keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha.

Beshinchi tashabbus-xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish masalalari bo'yicha.

Asosiy qism

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbus yuzasidan Davlatimizda keng qamrovli ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda mazkur dasturlarga kiritilgan takliflar, ularni amalga oshirish mexanizmlari muhokama qilindi.

Xususan, birinchi tashabbus bo'yicha yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etishga oid dastur loyihasi tayyorlangan. Unga muvofiq, 2019-2020 yillarda 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan 2 million yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish bo'yicha hududiy "yo'l xarita"larini tasdiqlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha sinflar, madaniyat markazida cholg'u, xonandalik, tasviriy san'at to'garaklari, havaskorlik teatr jamoalari va bolalar ansambllarini tashkil etish belgilangan. Yangidan quriladigan, rekonstruksiya va kapital ta'mirlanadigan hamda jihozlanadigan madaniyat markazlari manzilli ro'yxati ham shakllantirilgan.

Davlat rahbari dastur loyihasida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari yetarli emasligi, har bir shahar va tumanga ijodiy maslahatchi sifatida birlashtirilgan taniqli namoyandalarning amaliy vazifalari aniq belgilanmaganini qayd etdi. Hududiy "yo'l xarita"lari ijrosini tizimli tashkil etish, to'garak va sinflarga qamrab olingan bolalarni rag'batlantirish, jumladan, har xil tanlovlar o'tkazish zarurligini ta'kidladi.

Belgilangan qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, shuningdek, madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarini musiqa cholg'ulari bilan ta'minlash uchun tegishli mablag' ajratish bo'yicha topshiriq berildi.

Ikkinchi tashabbus yuzasidan tayyorlangan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, sport inshootlari quvvatini oshirishga qaratilgan dastur loyihasida yaqin 2 yilda har bir tumanda yengil konstruksiyali, sendvich panelli kichik sport zallari qurish belgilangan.

Prezident xarajatlarni belgilashda shularni inobatga olish, aholi va yoshlar o'rtasida ommaviy sport tadbirlarini o'tkazishni ko'paytirish kerakligini ta'kidladi.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish chora-tadbirlariga oid dastur doirasida 2019-2020 yillarda tuman va shaharlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etish va ularda bepul ta'lim berish, 19 mingga yaqin ijtimoiy soha ob'ektini yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulash ko'zda tutilmoqda. Yig'ilishda aholining kompyuter savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalariga qiziqqan bolalarni to'g'ri tarbiyalab, ularni malakali mutaxassis darajasiga olib chiqish, dasturiy mahsulotlar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasi to'rtinchi tashabbus maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Unga ko'ra, har bir hududga 1 million donadan badiiy, tarixiy, ilmiy, ommabop mavzulardagi kitoblarni yetkazib berish ko'zda tutilgan. Shuningdek, axborot-kutubxona markazlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, tadbirkorlar tomonidan xalq kutubxonalari ochish ham belgilangan.

Beshinchi tashabbus bo'yicha hududlarda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi loyihasi tayyorlangan. 2019-2020 yillarda har

bir tumanda yengil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollarni band etish ko'zda tutilmoqda.

Yig'ilishda ushbu korxonalarni puxta hisob-kitob asosida tashkil etish, ularda ishlab chiqariladigan tovarlar bozorini, ya'ni aniq xaridorini topish yuzasidan takliflar bildirildi. Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari eshitilib, dasturlar loyihalarini takomillashtirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.

O'tgazilgan yig'ilishlar va ko'rilgan chora-tadbirlar orqali quyidagi natijalarga erishildi.

Mamlakatimiz aholisining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Yoshlarning 9,5 millioni erkak, 9,4 millioni esa ayol jinsiga mansub.

Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 - 2020-yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi, 30-iyun — "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat "Yoshlar parlament"lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashkil qilindi.

"Mahallabay" o'rganishlar orqali yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlikka jalb etish, shuningdek, ular o'rtasida madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida yangicha tizim asosida barcha tuman (shahar)larda "Yoshlar dasturlari"ni amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo'lgan ishsiz yoshlar kiritiladigan "Yoshlar daftari" tizimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.

Shuningdek, yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yilga mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili", deb nom berildi.

Respublikada yoshlar manfaatlarini himoya qiladigan 830 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan "Beshta muhim tashabbus" ilgari surildi.

O'tgan yillar davomida 42 ta tuman (shahar)larning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahallalarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Hududlarda 72 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etilib, "Ma'rifat karvoni" tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi hamda "Yosh kitobxon" tanlovi, "Bir

million dasturchi” kabi o‘nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan ta‘lim tizimida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi to‘rt yilda mamlakatda oliy ta‘lim muassasalari soni 50 foizga (43 ta yangi) oshirilib, ularning soni 121 taga, yoshlarni oliy ta‘lim muassasalariga qamrov 9 foizdan 25 foizga yetkazildi. 4 ta Prezident maktablari, 5 ta “Temurbeklar maktabi” va 9 ta ijod maktablari barpo etilib, “Zamonaviy maktab” dasturi joriy etilmoqda.

Respublikada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 22,9 foizi (106 ming 574 tasi) 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning 21,5 foizini (71 ming 467 tani) 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Shuningdek, mamlakatda 3,4 mingga yaqin yosh fermerlar, 7,8 mingga yaqin yosh hunarmandlar faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasiga 2019-yilda o‘tkazilgan saylovlarda 9 nafar (6 foiz) yoshlar deputat etib saylangan bo‘lsa, mahalliy kengashlar deputatlarining 10 foizini yoshlar tashkil etadi.

“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta‘sis etilib, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan, shuningdek, o‘qishda va mehnat faoliyatida katta yutuqlarga erishgan 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan yoshlar mukofotlanmoqda.

So‘nggi uch yilda nufuzli xalqaro tanlov va musobaqalarda mamlakat yoshlari tomonidan 5299 marotaba sovrinli o‘rinlar qo‘lga kiritilgan, xususan, madaniyat va san‘at sohasida 446 ta, sport sohasida 4 838 ta, fan-ta‘lim sohasida 15 ta.

Respublikada yoshlar va ularning oilalari uchun davlat tomonidan turli shakldagi moddiy yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, o‘tgan uch yilda respublikamizda 5122 ta yosh oilalar uy-joy bilan ta‘minlandi.

Yoshlar siyosati bo‘yicha xorij tajribasidan samarali foydalanish, o‘zaro tizimli hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 13 ta xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston 2018-yilda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Yoshlar kengashiga, 2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Yoshlar masalalari bo‘yicha kengashiga teng huquqli a‘zo sifatida qabul qilindi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan yoshlarga oid davlat siyosatida erishilgan yutuqlar va ijobiy natijalar bilan bir qatorda quyidagi muammolar mavjud:

1. Ta‘limning barcha bosqichlarida ta‘lim sifati talab darajasida emas.

O‘zbekistonning amaldagi ta‘lim tizimi ma‘lumotlarni yod olishga qaratilgan bo‘lib, yoshlarning ijodiy va mantiqiy fikrlashi, tanqidiy tahlil qilishi, mustaqil fikr yuritishi va yangiliklar yaratishini rivojlantirishga yo‘naltirilmagan. Natijada yoshlar hayotda o‘zi mustaqil qaror chiqarishi, jamiyatdagi tezkor o‘zgarishlarga moslashishi, o‘z o‘rnini topishi jarayonlari murakkab kechishi holatlari kuzatilmoqda.

2. Maktabgacha ta‘lim va oliy ta‘lim bosqichlarida yoshlarning ta‘lim bilan qamrovi real ehtiyojni qondirmayapti.

Xususan, 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi qamrovi 60 foizni (2021-yil 1-yanvar holatiga), yoshlarning oliy ta‘lim tizimidagi qamrovi 25 foizni tashkil qilmoqda.

3. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli tashkil etilmagan, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash mehnat bozori talablari asosida amalga oshirilmayapti, ya‘ni professional ta‘lim ishlab chiqarish amaliyotidan uzilib qolmoqda.

Natijada oliy ta‘limni tamomlagan yoshlarning ko‘pchilik qismi mutaxassisligi bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmaydi, xususan, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni

tayyorlash instituti tahlillariga ko'ra, bitiruvchilarning faqatgina 26,2 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlab ketishiga to'liq ishonishini bildirgan.

4. Yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishda muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi 2020-yilning so'nggi choragida 6,6 foizni (480 ming 261 nafar) tashkil etgan. Shu bilan birga, ta'lim muassasasini tamomlab, birinchi bor ish izlayotgan, muddatli harbiy xizmatni o'tagan yoshlar, xotin-qizlar, ayniqsa bola parvarishi bo'yicha ta'tildan qaytgan ayollarning ishga joylashishida sun'iy to'siqlarga uchrash holatlari mavjud.

5. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligi pastligi sababli ularning turli yot g'oyalarga ergashishi, huquqbuzarlik va jinoyatchilik, erta tug'ruq hamda to'y-hashamlarning ortiqcha sarf-xarajatlar bilan o'tkazilishi kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda.

39088 nafar yoshlar notinch oilalarda istiqomat qilmoqda, 368 nafar yoshlar turli zararli noformal guruhlar, oqimlar ta'siriga tushib qolgan. Xususan, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida qayd etilgan 39244 ta jinoyatlarning 11469 tasi yoki 34,8 foizi yoshlar tomonidan sodir etilgan.

Yoshlarni oilaga sadoqat ruhida tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash ishlari tizimli tashkil etilmagan.

Xususan, yoshlar o'rtasida erta nikoh holatlari, qonuniy rasmiylashtirilmagan nikoh va ajrim holatlari kuzatilmoqda, jumladan 2020-yilning 11 oyida qayd etilgan 25 mingta oilalar ajrimlarining aksariyati yoshlar hissasiga to'g'ri keladi.

6. Yoshlarning tibbiy madaniyati pastligicha qolmoqda.

Yoshlarda reproduktiv salomatlik, to'g'ri ovqatlanish va gigiyena qoidalari, sog'lom turmush tarzi haqida tushunchalar to'liq shakllanmaganligi oqibatida turli yuqumli va surunkali kasalliklar, bevaqt o'lim holatlari, giyohvand moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlariga ruju qo'yish, psixotrop moddalar iste'mol qilish kabi salbiy holatlar (2020-yil sentyabr holatiga giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi 5889 nafar yoshlar ro'yxatda turadi), yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilishi natijasida esa millat genofondi buzilishi, tug'ma nuqsonli bolalar dunyoga kelishi holatlari saqlanib qolmoqda.

7. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar va bolalarning (yetimlar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, nogironligi bor hamda davolanishga muhtoj) jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ish va uy-joy bilan ta'minlash, jamiyatga ijtimoiy moslashuvini amalga oshirish bo'yicha belgilangan mexanizmlar amalda o'z natijasini bermayapti.

Bugungi kunda respublikamizda alohida e'tiborga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan 150 ming nafar bolalar mavjud.

Oliy ta'lim muassasalarida maxsus kvota asosida o'qitilgan nogironligi bor yoshlarning davlat tashkilotlarida ish bilan ta'minlanishi mexanizmi amalda qo'llanilmayapti.

Nogironligi bor yoshlarning hududlardagi infratuzilma, ta'lim, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, madaniy meros obyektlari, ko'ngilochar jamoat maskanlaridan foydalanishi uchun qulay shart-sharoitlar to'liq yaratilmagan.

8. Yoshlarning jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalardagi faolligi va ishtiroki sust darajada qolmoqda.

Yoshlarning saylov jarayonlari, siyosiy partiyalarning yoshlar qanotlari faoliyatidagi ishtiroki holati bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

9. Hududlarda yoshlarga oid infratuzilma qoniqarli darajada emas.

Jumladan, yoshlarning madaniy saviyasini oshirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar, kutubxonalar, istirohat bog'lari va boshqa madaniyat muassasalari soni yetarli emas.

Aksariyat mahallalar va maktablarda yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar mavjud emas. Xususan, mavjud sport inshootlari 1,3 mln o'ringa ega bo'lib, mamlakat aholisining faqatgina 4 foizini qamrab oladi, maktablarining 24 foizida sport zallari mavjud emasligi sababli, o'quvchilarning bor-yo'g'i 25 foizi jismoniy tarbiya va sportga jalb etilgan.

Ayrim hududlarda yoshlarning sifatli, tezkor va arzon internet xizmatlaridan foydalanishi uchun sharoitlar yetarli emasligi ularning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishiga to'siq bo'lmoqda.

Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, yangi asarlarni yaratish, tarjima qilish va mualliflarni rag'batlantirishning kompleks chora-tadbirlari amalga oshirilmayapti, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlar, ko'zi ojizlar uchun brayl alifbosiga asoslangan adabiyotlar chop etilishi mexanizmi yo'lga qo'yilmagan.

Xulosa

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus faqatgina ta'lim sohasini islox qilib qolmay balki aholimizning kasb-hunar o'rganishiga, xotin qizlar bandligini taminlashga, sog'lom turmush tarzini tashkil etishga, o'sib kelayotgan yosh avlodni kompyuter sohasini yangi bosqichda o'rganishiga ham qaratilganidir. Bu besh tashabbus quyidagilarni qamrab oldi:

1. Bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha sinflar, madaniyat markazida cholg'u, xonandalik, tasviriy san'at to'garaklari, havaskorlik teatr jamoalari va bolalar ansambllarini tashkil etish belgilandi. Yangidan quriladigan, rekonstruksiya va kapital ta'mirlanadigan hamda jihozlanadigan madaniyat markazlari manzilli ro'yxati ham shakllantirildi.
2. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, sport inshootlari quvvatini oshirishga qaratilgan dastur loyihasida yaqin 2 yilda har bir tumanda yengil konstruksiyali, sendvich panelli kichik sport zallari qurish belgilandi.
3. Kompyuter savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalariga qiziqqan bolalarni to'g'ri tarbiyalab, ularni malakali mutaxassis darajasiga olib chiqish, dasturiy mahsulotlar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.
4. Axborot-kutubxona markazlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, tadbirkorlar tomonidan xalq kutubxonalarini ochish ham belgilangan.
5. Xotin-qizlar bandligini taminlash, ularni kasbga o'rgatish exanizlari ishlab chiqildi.
6. Har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo'lgan ishsiz yoshlar kiritiladigan "Yoshlar daftari" tizimi joriy etildi.
7. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.
8. "Ma'rifat karvoni" tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi.
9. O'zbekiston 2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Yoshlar masalalari bo'yicha kengashiga teng huquqli a'zo sifatida qabul qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/-5234746>
2. <https://xs.uz/uz/post/beshta-tashabbus-bojicha-dasturlar-yoshlar-va-khotin-qizlar-manfaatlarini-qamrab-oladi>
3. <https://qalampir.uz/uz/news/prezident-besh-tashabbus-buyicha-vigilish-utkazdi-1797>